
"Mo'jiza yaratuvchi ayollar karvoni" shiori ostida hunarmandlar ko'rgazmasi o'tkazildi

Farg'ona shahar oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan Sharqiy harbiy okrugining madaniyat saroyida hunarmandlar ko'rgazmasi, mehnat yarmarkasi hamda madaniy dastur o'tkazildi. Tadbirni shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova ochib, mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

Tadbirda taklif etilgan shahrimizdagi 20 ga yaqin ayol hunarmandlar o'zlari tomonidan yasalgan mahsulotlari bilan ko'rgazmada ishtirok etdilar. Ko'rgazma va mehnat yarmarkasida shahrimizdagi "Ayollar daftari"ga kiritilgan ishsiz ayollar ham ishtirok etdi.

Tadbirlar davomida hunarmandlar tomonidan ishtirokchilarga ish jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Mazkur hunarlarni o'rganish istagini bildirgan xotin-qizlarga "Ustoz-shogird" ana'nasiga ko'ra ustalar biriktirildi.

Shundan so'ng, mehnat yarmarkasi orqali shahrimizdagi bo'sh ish o'rinlari haqida ishsiz xotin-qizlarga ma'lumotlar berildi. Kontsert dasturida esa shahar madaniyat bo'limining xushovoz xonandalari tomonidan dilrabo kuy-qo'shiqlar ijro etildi. O'tkazilgan tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-10 01:44:58